1/2024, yanvar-fevral (№ 00069)

MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich
Oriental universiteti, Iqtisodiyot va turizm kafedrasi mudiri.
n.mirzaakhmedov@mail.ru
ORCID: *https://orcid.org/0009-0006-2162-5917*
DOI: *https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss1/i2*

Annotatsiya
Ushbu maqolada hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, investitsiya va boshqa sohalarda davlat darajasida qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududlar moliyaviy resurslari va iqtisodiy salohiyatini, ularning moliyaviy barqarorlik darajasi mamlakatimizda biznes yuritishni maqsad qilgan xorijiy tadbirkorlarda qiziqish uyg'otishi mumkin. Shuning uchun mahalliy byudjetlarning markaz byudjetiga qaramligini keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish va mahalliy byudjetlar mablag'larini samarali boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishlarini ta'minlash muhim omil hisoblanadi. Bunda mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari bazasini kengaytirish, xarajat majburiyatlarini optimallashtirish asosida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.
Kalit so'zlar: mahalliy byudjetlar, yuqori byudjet, moliyaviy-iqtisodiy asos, hududlar iqtisodiyoti, byudjet tizimi, xorijiy mamlakat investitsion loyihalar, moliyalashtirish, asosiy kapital, taraqqiyot strategiyasi, moliyaviy barqaror, tashqi iqtisodiy faoliyat, byudjetlararo munosabatlar.

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ

Мирзаахмедов Нодирбек Шавкатович
Заведующий кафедрой экономики и туризма Восточного университета.

Аннотация
Данная статья послужит основой для разработки и реализации территориальной политики, принятия решений на государственном уровне в инвестиционной и других сферах. В то же время финансовые ресурсы и экономический потенциал регионов, уровень их финансовой устойчивости могут представлять интерес для иностранных предпринимателей, стремящихся вести бизнес в нашей стране. Поэтому важным фактором является резкое снижение зависимости местных бюджетов от бюджета центра, радикальное реформирование межбюджетных отношений и обеспечение самостоятельной работы органов государственной власти на местах по эффективному управлению средствами местных бюджетов. При этом одним из важных вопросов является расширение собственной доходной базы местных бюджетов, обеспечение их финансовой устойчивости на основе оптимизации расходных обязательств.
Ключевые слова: местные бюджеты, высокий бюджет, финансово-экономическая основа, экономика регионов, бюджетная система, зарубежные инвестиционные проекты,

финансирование, основной капитал, стратегия развития, финансовая устойчивость, внешнеэкономическая деятельность, межбюджетные отношения.

WAYS TO ENSURE THE FINANCIAL STABILITY OF LOCAL BUDGETS

Mirzaakhmedov Nodirbek Shavkatovich
Head of Department of Economics and Tourism, Oriental University.

Abstract
This article provides the framework for the development and implementation of territorial policies, making decisions at the state level in investment and other areas. At the same time, the financial resources and economic potential of the regions, their level of financial stability, can arouse interest in foreign entrepreneurs who aim to do business in our country. Therefore, it is an important factor to dramatically reduce the dependence of local budgets on the central budget, radically reform Inter-budgetary relations and ensure the independent work of state authorities on the premises in the effective management of funds of local budgets. One of the important issues in this is the expansion of the base of local budgets ' own income, ensuring their financial stability on the basis of optimization of cost obligations.
Keywords: local budgets, high budget, financial and economic basis, economy of Regions, budgetary system, investment projects of a foreign country, financing, basic capital, development strategy, financial stability, foreign economic activity, Inter-budgetary relations.

Kirish

Davlat zimmasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarning hududlarda to‘liq, o‘z muddatlarida hamda ijobiy hal etilishi uchun kerakli miqdorda moliyaviy resurslar talab etiladi. Ushbu moliyaviy resurslarning markaziy bo‘g‘inini mahalliy byudjetlar tashkil etadi. O‘z navbatida, hududlarda mahalliy davlat hokimiyati idoralari zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarning samarali ijrosi mahalliy byudjetlarning moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishini taqozo etadi. Mahalliy byudjetlarning daromad manbalari va xarajat yo‘nalishlarining amaldagi holati tahlili ularni moliyaviy jihatdan barqarorligini oshirish zarurligini taqozo etmoqda.

Ma’lumki, mahalliy byudjetlarning daromadlari jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari hisobidan shakllantiriladi. O‘z navbatida, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda o‘z va biriktirilgan daromadlari muhim ahamiyatga ega. Biroq, ularning ulushi mahalliy byudjetlar jami daromadlarining yarmini ham tashkil etmaydi. Aksincha, tartibga soluvchi daromadlar ulushi yuqori bo‘lib, bular respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlardan iborat. Mazkur daromadlar normativlar asosida byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanadi. Bu esa mahalliy byudjetlarning yuqori byudjetga qaramligini oshiradi va mahalliy byudjetlar daromadlari bilan ular xarajatlarining mutanosibligini ta’minlashga imkon bermaydi. Natijada, mahalliy byudjetlar faqatgina daromadlar va xarajatlarning yillik moliyaviy rejasini aks ettirib, mustaqil ravishda shakllantirilgan byudjet bo‘la olmaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati idoralari o‘zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni lozim darajada bajarishlari uchun byudjet daromadlaridan iborat barqaror moliyaviy-iqtisodiy asosga ega bo‘lmog‘i lozim. Shu sababli, yuqorida qayd etilgan va o‘z echimini kutayotgan muammolarning ijobiy hal etilishi, birinchidan, byudjetlararo munosabatlarning takomillashtirilishiga, ikkinchidan, mahalliy byudjetlar jami daromadlari tarkibida o‘z

daromadlari ulushining oshirilishiga xizmat qiladi. Mana shu muhim ikki shartning bajarilishi mahalliy byudjetlar mustaqilligini ta’minlash va oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagilar bilan birga, mahalliy byudjetlarning moliyaviy jihatdan barqarorligiga bir qator omillar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan: hudud iqtisodiyotining sust rivojlanishi; rivojlangan ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilma tizimining mavjud emasligi; mahalliy byudjetlarning soliq potensialini qisqartirishga yo‘naltirilgan davlat organlarining siyosati; mahalliy hokimiyat idoralariga tegishli mol-mulklardan samarali foydalana olmaslik (yoki mulkni byudjet tizimining boshqa bo‘g‘iniga o‘tkazilishi sababli mulkning qisqarishi), daromad manbalarining etarli emasligi sababli mahalliy byudjetlar barqarorlik darajasining pasayishi; mahalliy soliqlar va yig‘imlarni to‘lashda ayrim jismoniy va yuridik shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashi; mahalliy byudjetlarning ijrosi ustidan byudjet nazoratining sustligi; hududlarning iqtisodiy salohiyatidan, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalana olmaslik kabilar mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligining ta’minlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, hududlar iqtisodiyotida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tarmoqlarning rivojlanmaganligi, hududlar iqtisodiy saloxiyatiga nisbatan ijtimoiy majburiyatlarning salmoqliligi, yashirin iqtisodiyot darajasining yuqoriligi yoki norasmiy hamda yashirin faoliyat turlarining kengayishi natijasida soliqqa tortish bazasining nisbatan torayib borishi kabilar ham mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishda salbiy ta’sir doirasiga ega.

O‘tgan yillarda davlat tomonidan soliqli daromadlarni byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida qayta taqsimlash va mahalliy byudjet mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha vakolatlarning nomarkazlashtirilishiga yo‘naltirilgan byudjet-soliq siyosati amalga oshirildi. Shu bilan birga ayni paytda turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida ayrim muammolar mavjud. Bunga misol sifatida byudjetlararo munosabatlarning nomukammalligini keltirish mumkin. Mahalliy byudjetlarning balansligini ta’minlash maqsadida ajratilgan moliyaviy transfertlarning miqdori 2020-2023 yillar davomida o‘sish sur’atlariga ega bo‘ldi. Natijada, quyi byudjetlarning yuqori byudjetga qaramligi oshdi. Bu esa mahalliy byudjetlar mustaqilligining pasayishiga olib keldi. Pirovardida, hududlar tarkibidagi ayrim tuman va shahar mahalliy byudjetlari o‘z daromadlari hisobidan xarajatlarini mustaqil qoplay olmadi.

Bizning fikrimizcha, mahalliy byudjetlarga soliq va soliqsiz tushumlarning barcha turlari bo‘yicha ijobiy dinamikani ta’minlash kerak. Mazkur tushumlar rag‘batlantiruvchi xarakterga ega bo‘lib, mahalliy hokimiyat organlarini har yili ushbu tushumlar miqdorini oshirishga undaydi. Uning samarasini o‘tgan yilgi tushumlar miqdori bilan solishtirib, aniqlash mumkin. Shuningdek, bunda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yashirin bandlikni qonuniylashtirish bo‘yicha nazorat tadbirlarini o‘tkazish, mahalliy byudjetlarga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish va debitorlik qarzlarining o‘sishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim. Soliqsiz tushumlar miqdorini oshirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlariga tegishli bo‘lgan mol-mulklardan foydalanish samaradorligini oshirish talab etiladi. Buning uchun mahalliy hokimiyat tasarrufidagi mulklardan foydalanganlik uchun to‘lovlar o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda mulklardan foydalanuvchi tadbirkorlarning bank hisobvaraqlari bilan bo‘ladigan operatsiyalarini to‘xtatish, jarimalar va penyalar miqdorini oshirish choralari ko‘rilishi kerak.

Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash jarayoni har doim mahalliy darajada soliqqa tortish bilan bog‘liq muammolarning hal qilinishiga bog‘liq bo‘ladi.

Chunki, mahalliy byudjetlar daromadlarining poydevori yuqori darajadagi byudjetdan tartibga solinadigan daromadlardan iborat bo‘lib, ular, o‘z navbatida, yildan-yilga o‘zgarishi mumkin. Qayd etish joizki, bunday daromad turlariga byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar tegishli bo‘lib, bular yuridik shaxslarning foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan daromad solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘idan iborat. Mazkur soliqlardan tushadigan tushumlar respublika byudjetiga tegishli bo‘lib, mahalliy hokimiyat organlari ushbu soliqlardan tushumlar miqdoriga va soliqlar stavkasiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini oshirishlarida o‘z daromadlari va qo‘shimcha daromadlari hajmining oshirilishiga erishishlari talab etiladi. Chunonchi, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq miqdorini oshirish, erlarning ijara haqini oshirish, avtoturargohlardan foydalanganlik uchun (masalan, hozirgi kunda shahar markazlaridagi turar-joylar yonida fuqarolar tomonidan vaqtinchalik avtoturargohlar barpo etilgan) soliqlar joriy qilish, bozorlar (oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshq.) faoliyatini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Bir vaqtning o‘zida mahalliy byudjetlar daromadlarining xarajatlariga mutanosib emasligi ular daromadlari manbalarining tarkibiga va xarajat yo‘nalishlariga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan mahalliy byudjetlar mustaqilligining oshirilishi daromad manbalarining kengaytirilishini, tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishini, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanilishini hamda ularning xarajat majburiyatlarining optimallashtirilishini taqozo etadi.

O‘z navbatida, mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishda ularning daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlar vakolatlari va xarajatlar majburiyatlarining taqsimoti har bir mamlakatda mavjud bo‘lib, moliya tizimi va fiskal siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Byudjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi munosabatlar davlat tuzilishi shakliga qarab, turli tamoyillar asosida shakllanadi. Aksariyat mamlakatlarda markaziy va mahalliy byudjetlar o‘rtasida, shuningdek, quyi byudjetlar o‘rtasida ham daromadlar vakolatlari va xarajatlar majburiyatlarini belgilashda muammolar mavjud.

Xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan, Rossiya Federatsiyasida ham turli darajadagi boshqaruv organlari o‘rtasida daromadlar va xarajatlarga doir vakolatlarni taqsimlash masalalari katta ahamiyatga ega bo‘lib, bunda o‘zini o‘zi boshqarish mahalliy organlariga, mahalliy byudjetlarning ishonchli va barqaror daromad bazasini shakllantirishga, hududlardagi hokimiyatlarning daromadlarini tenglashtirishga, shuningdek, ularga moliyaviy yordam berish shartlari va mexanizmlariga katta e’tibor qaratilmoqda.

Har qanday mamlakatda mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta’minlashda byudjetlararo munosabatlarning takomillashganligi muhim ahamiyatga kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki (keng soliq vakolatlarga asoslangan mustaqillik – Avstraliya, Kanada, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya; ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda hududiy hokimiyatlarning ishtiroki faolligi – Daniya, Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya; turli darajadagi byudjetlarning mustaqillik darajasi yuqoriligi bilan bir vaqtda ular o‘rtasidagi hamkorlik tizimining rivojlanganligi – Avstriya, Germaniya, Shveysariya; hududiy hokimiyatlarning moliyaviy jihatdan federal byudjetga bog‘liqlik darajasi yuqoriligi – Belgiya, Fransiya, Gresiya, Niderlandiya, Ispaniya) turli mamlakatlarning iqtisodiy siyosati va tarixiy

an'analarining byudjet-soliq tuzilishiga katta ta'siri tufayli barcha mamlakatlar uchun byudjetlararo munosabatlarning ideal modeli mavjud emas.

Ko'rib turganimizdek, byudjetlararo munosabatlar modellari sezilarli darajada bir-biridan farq qiladi. Bu esa mamlakatning byudjet tizimi tuzilishining xususiyatlari va uning darajalari o'rtasida mablag'lar taqsimotining shakllari bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlarda mablag'lar federal byudjetdan mahalliy byudjetlarga hududiy byudjetlar orqali o'tkazilishi mumkin. Bunday hollarda, hududiy byudjetlar mablag'larni taqsimlashda vositachi rolini bajaradilar. Byudjet tizimi darajalari o'rtasida mablag'larni bunday taqsimotini AQShda ko'rish mumkin. Boshqa mamlakatlarda esa federal byudjetdan mablag'larni faqat hududiy byudjetlarga o'tkazish huquqi o'rnatilgan, ular esa, o'z navbatida, mablag'larni tegishli mahalliy byudjetlarga taqsimlaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Endi mahalliy byudjetlar strategiyalariga nisbatan ilmiy yondashuvlarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Tadqiqotchi mahalliy hududlarga qo'yilgan vaziflarni hal etish uchun iqtisodiy jihatdan avvalo moliya-byudjet faoliyatiga mustaqillikni ta'minlash bilan amalga oshirilishi mumkinligi bilan belginishini ta'kidlaydi. Shuningdek, mahalliy o'zo'zini boshqarish tizimidagi strategiya munitsipalitetlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqishga imkon yaratilishi bilan yuzaga kelishini ko'rsatib beradi[6]. Dots. N.Korotina mahalliy byudjetlar moliyaviy holatini baholashga nisbatan tahlil metodikasini taklif etadi. Unga ko'ra, ko'rsatkichlar beshta guruhga ajratilib ko'rsatiladi, ular[7]:

– balanslashtirilgan mahalliy byudjet ko'rsatkichlari;

– munitsipal tuzilmaning moliyaviy mustaqillik ko'rsatkichlari;

– byudjet xarajatlari sohasida munitsipal byudjet siyosati yo'nalishlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar;

– munitsipal tuzilmaning byudjeti barqarorligi ko'rsatkichlari;

– munitsipal tuzilmaning qarzdorlik ko'rsatkichlari.

Yuqorida keltirib o'tilgan rossiyalik olimlarning fikrlari mahalliy byudjetning moliyaviy strategiyasini shakllantirishda fundamental asoslarni tashkil etuvchi omillarni aks ettirishga xarakat qiladi. Jumladan, O'zbekistonlik olimlarning ham ayrim ilmiy xulosalariga e'tibor bersak maqsadga muvofiq bo'ladi. Prof. A.Burxanov va dots. X.Qurbonov hududlarda mahalliy byudjetlarning daromad manbalarini kengaytirishga qaratilgan ilmiy xulosalarini asoslab berishadi. A.Mamanazarov mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan[8]. Uning fikriga ko'ra, byudjetning barqarorligi quyidagi ikki jihat bilan ifodalanishini qayd etib o'tadi. birinchidan, bu byudjetning balanslashgan bo'lishi va taqchillik bo'lmasligini bildiradi; ikkinchidan, bu taqchillik bo'lganda ham uni bir meyorda saqlanishini anglatishini ta'kidlab o'tadi. Z.Ro'ziyev mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirgan bo'lib, Qashqadaryo miqyosida muammolarni o'rganib ularni quyidagicha tizimlashtirib beradi[9]: birinchidan, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliqlarning yig'uvchanlik darajasi pastligi va soliq to'lovchilarning to'liq davlat ro'yxatiga olinmaganligi. Ikkinchidan, mahalliy moliya tarkibida mahalliy byudjet va korxonalar moliyasini shakllantirish bo'lib, boqimanda debitor-kreditor qarzdorliklar yildan-yilga oshi borayotganligi. Mahalliy byudjetlarning daromad yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida qator tadqiqotlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Dots. A.Xayriddinov mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlashda soliqlarning roli va ahamiyatini

oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirib bergan[10]. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ifoda etuvchi ko‘rsatkichlarni tizimlashtirib beradi. SH.Qiyosov mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirish muammolarini hal qilish maqsadida tabaqalashtirilgan daromad tushumlarini mahalliy hokimiyat organlariga quyidagi vakolatlarni berishni tavsiya etadi[11]:

– mintaqlardagi soliqlarni muvozanatlash va byudjet ehtiyojlarini muvofiqlashtirish;

– investitsiyalar, bandlik bozorlari faoliyatini ta’minlash maqsadida tabaqalashtirilgan soliq rejimlarini o‘rnatish;

– yuqori va quyi bo‘g‘inlarini bir-biriga bo‘ysinishini yangilash va tizimlash;

– mintaqada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida tabiiy zaxiralardan foydalanish solig‘i stavkalarini belgilash;

– imtiyozli soliq solishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash.

X.Qobulov hududiy imkoniyatlar va mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari to‘g‘risida tadqiqotlar olib borib ilmiy xulosalarni shakllantirib beradi[12]. Uning fikriga ko‘ra, mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari tavsiflanganda daromadlar bazasi bilan cheklanib qolmaslikni, balki uni o‘sib borayotgan majburiyatlar sur’atlariga muvofiq tarzda davlatning qo‘shimcha tadbirlari tizimidagi aniq choralar bilan ham muvofiqlashtirish lozimligini ta’kidlab o‘tadi. Umuman olganda, mahalliy byudjetlarning moliyaviy strategiyasida moliyaviy mustaqillik ikki omilga bog‘liq ekanligi olimlar tomonidan ham asoslab berilmoqda. Jumladan, bular byudjet daromadlari va xarajatlari hisoblanadi. Shu boisdan, ularni muvozanatlashtirish moliyaviy strategiyaning bosh maqsadi bo‘lib qoladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy xulosalarda mahalliy byudjetlarning strategiyalarida byudjet daromadlariga nisbatan aniq yondashuvlarni ko‘rish mumkin. PhD M.Mansurov byudjet tuzilishini jahon amaliyotiga asoslangan holda markazlashtirilgan, markazlashtirilmagan va aralash turdagi shakllarga ajratilishini ta’kidlab o‘tadi[13]. Shuningdek, mahalliy byudjetlarda amalga oshirilgan moliyaviy nazorat natijalariga e’tibor qaratadi. “Mahalliy byudjetlar tuzilishi va ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakunlari tegishli viloyat hokimliklarida mahalliy byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlanadigan muassasa va tashkilotlarining rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirokida muhokama qilinib, aniqlangan byudjet intizomini buzish holatlarini takrorlanmaslik yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Yo‘l qo‘yilgan xatokamchiliklarning aksariyat qismi byudjetning xarajatlar qismiga to‘g‘ri keladi. A.Suvanov o‘zining ilmiy ishida mahalliy byudjet ijrosiga e’tibor qaratadi[14]. Mahalliy byudjet nafaqat byudjet tizimida, balki bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy iqtisodiyotni samarali olib borishda muhim o‘rin egallaydi. Byudjet ijrosi samaradorligini ta’minlashda asosiy muammolardan biri byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida byudjet resurslarini taqsimlash muammosidir. Yuqoridagi ilmiy xulosalarda byudjet xarajatlarini taqsimlashga nisbatan umumiy yondashuvlar, ularning ochiqligiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, mahalliy byudjetlarning xarajatlarini taqsimlashda klaster tahlilni qo‘llash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Tahlil jarayonida ma’lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida mahalliy byudjetlar

xarajatlarini taqsimlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi, deb o‘ylaymiz:

Tahlil va natijalar muhokamasi

Oxirgi yillarda mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradoligiga ta’siri borasida ko‘plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotimizda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarini tadqiq qilib chiqamiz.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning asosiy vazifasi bo‘lib aniq iqtisodiy va siyosiy sharoitlarda davlat hokimiyati darajalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning eng samarali modelini tanlashdan iborat. Buning uchun, yuqorida ta’kidlanganidek, hokimiyat darajalari o‘rtasida xarajatlarga oid vakolatlarni aniq taqsimlash, ularni tegishli moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlash, moliyaviy salohiyati past hududlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish tizimini shakllantirish zarur.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning samarali modeli ham xarajatlar, ham daromadlarga oid vakolatlarni aniq chegaralashga, barcha darajadagi hokimiyat organlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishlari uchun etarli daromad manbalariga ega bo‘lishi lozim. Soliqlarni byudjet tizimi darajalari o‘rtasida chegarasini belgilashning maqsadi ma’lum bir hududda mavjud bo‘lgan soliq salohiyatidan kelib chiqib, barcha darajadagi byudjetlarni muvozanatlashtirish uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Byudjet tizimi darajalari o‘rtasida soliqlarni maqbul belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Albatta, byudjet tizimi darajalari o‘rtasida manfaatlar uyg‘unlashuvi tamoyiliga javob beradigan daromadlarni doimiy ravishda maqbul taqsimotiga intilish kerak.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etishning xorij tajribasi uni qo‘llash nuqtai nazaridan munozarali hisoblanadi. Chunki, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solishning ma’lum usullari va shakllarini qo‘llash, avvalambor, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va unda yuz berayotgan o‘zgarishlarning xususiyatlariga bog‘liqdir. Shuning uchun ham mamlakatimizda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlar va xarajatlar taqsimotini belgilashda hududlarning rivojlanish darajasini va iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda, mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish lozim.

Aksariyat hollarda, mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida yuqori byudjetlar tomonidan ajratiladigan moliyaviy transfertlar asosiy o‘rinni egallashi barchaga ayon. Masalan, mahalliy byudjetlarning o‘z va biriktirilgan daromadlari miqdori ularning xarajat majburiyatlarini qoplay olmasligi sabab respublika byudjetidan 2023-yilda ajratilgan moliyaviy transfertlar miqdori 2020-yilga nisbatan 3,2 martaga ko‘paygan. Bu esa, haqiqatdan ham, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag‘lari etarli emasligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

– soliq potensialini takomillashtirish (soliq to‘lovchilarning soliq va yig‘imlarni to‘lash salohiyatini ifoda etib, yuridik va jismoniy shaxslarning ma’lum ma’muriy-hududiy birliklarni soliqli daromadlar bilan ta’minlash darajasi bilan bog‘liq);

– mahalliy byudjetlarda prognozlashtirilgan daromadlarning to‘liq ijrosini ta’minlash;

– mahalliy soliqlar va yig‘imlarga oid qonunchilikning natijaviyligini ta’minlash;

– rag‘batlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan va aniq muammolarni hal qilishga qaratilgan soliq imtiyozlari va boshqa soliq preferensiyalarining samaradorligini baholash;

– yer va mol-mulk majmualarini boshqarish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlashda mahalliy hokimiyat organlarining mas’uliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Samaradorlik, shaxsiy javobgarlik va shaffoflik mahalliy hokimiyat idoralarining kundalik qoidasi bo‘lmog‘i lozim. Ularga rioya qilinishi aholining hayot darajasini oshirish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, ijtimoiy soha va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashga imkon beradi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlar va xarajatlar taqsimotini belgilashda hududlarning rivojlanish darajasini va iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda, mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish lozim. Buning uchun mahalliy byudjetlarning moliyaviy jihatdan barqarorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlariga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif-tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlash mahalliy byudjetlarning daromadlari barqarorligini ta’minlash, xarajatlari tarkibini optimallashtirish, mahalliy byudjet daromadlar vakolati va xarajatlar majburiyatini samarali amalga oshirish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilishi zarurligini taqozo etadi. Bunda albatta, mahalliy byudjetlar daromad bazasining belgilanishi, soliq potensiali, mahalliy byudjet daromadlar tarkibini shakllantirish tartibi, soliqli daromadlarning turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi mexanizmlari kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, mahalliy byudjetlarning daromad siyosati motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda turli darajalardagi byudjetlar o‘rtasida soliqlar va to‘lovlarni taqsimlashda hududlarning soliq potensialini baholash, respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasida soliqlar taqsimoti va moliyaviy transfertlarning optimal hajmini aniqlash, shuningdek, hududlarning tabiiy, moddiy resurs ko‘rsatkichlari hamda ularning o‘zgarishlarini inobatga olgan holda taqsimlash normalarini hamda mahalliy byudjetlarga barqaror soliqlardan tushumlarni qoldirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Hududlar soliq potensialini baholashda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, jumladan, YaHM tuzilmasi, soliq bazasi va soliq to‘lovchilar tarkibi kabi ko‘rsatkichlarni ifodalovchi tuzatish koeffisientlarining qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fikrimizcha, mahalliy byudjetlar byudjet tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, shu sababli mahalliy byudjetlar faoliyatini takomillashtirish, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish zarurdir. Ushbu zaruriyat quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– mahalliy byudjetlarning etarli darajada mustaqil emasligi;

– mahalliy byudjetlar daromalarining rejadan ortiq bajarilgan qismi to‘liq mahalliy byudjet tasarrufida emasligi;

–mahalliy byudjetlarda yuqori byudjetga qaramlik darajasining yuqoriligi;

–mahalliy byudjetlar daromadlarining uning xarajatlari bilan o‘zaro nomutanosibligi;

–mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida soliqsiz daromadlar miqdorining kamligi;

–mahalliy soliqlarni undirishni qiyinligi, soliq qarzdorligining yuqoriligi;

–hududlarda ishlab chiqarish obyektlari va tadbirkorlik subyektlarining notekis joylashuvi;

–hududlarda yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriligi;

– mahalliy byudjet mablag‘laridan noo‘rin foydalanish, byudjet mablag‘larini talon-taroj qilish holatlariga to‘liq barham berilmaganligi;

– mahalliy boshqaruv organlarining mahalliy byudjet mablag‘larini tasarruf etishdagi vakolatlarining cheklanganligi;

– mahalliy byudjetlarning moliyaviy salohiyati hududlarning iqtisodiy salohiyati va boshqa omillardan kelib chiqib turlicha ekanligi va boshqalar.

Yuqoridagi muammolar mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirishga to‘sqinlik qiladi. Shu munosabat bilan mahalliy byudjetlarni isloh qilish, ularda barqaror daromadlar manbalari shakllantirish hamda mahalliy hokimiyat va moliya organlari vakolatlarini yanada kengaytirishni taqozo etmoqda. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda mahalliy byudjetlarni barqarorligini oshirishni takomillashtirish bo‘yicha aniq strategik va taktik yo‘nalishlar belgilab olinishi dolzarb masala sanaladi. Bunda, birinchi navbatda, hududlarni kompleks rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, byudjet jarayonining barcha darajalarini rivojlantirish, nafaqat barqaror daromad manbalarini shakllantirish, balki mahalliy byudjetlar mablag‘laridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni tashkil etishni talab etadi.

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirishda soliq va yig‘imlar turlarini uzoq muddatga qat’iy biriktirish, islohotlar talablariga mos holda mahalliy hokimiyat va moliya organlarining mahalliy byudjet bo‘yicha vakolatlarini va majburiyatlarini oshirish ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega.

Bizningcha, mahalliy byudjetlarning barqarorligini oshirishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

Fikrimizcha, mahalliy hokimlik idoralarining byudjetga qo‘shimcha daromad tushirishdagi manfaatdorligini oshirish maqsadida respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlar bo‘yicha prognozdan ortiqcha tushgan qismini ham to‘liq mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirish maqsadga muvofiqdir. Tegishli mahalliy hudud doirasida undirilgan yuridik shaxslarning foyda solig‘i, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, QQS kabi respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlarning prognozdan ortiqcha tushgan qismi mahalliy byudjetlarning barqaror moliyaviy daromadga ega bo‘lishlarini ta’minlab, ularning moliyaviy jihatdan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Soliqlarning prognozdan ortiqcha undirilgan qismini to‘liq mahalliy byudjetlarga qoldirilishi mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirishga ham faol ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, bu amaliyot mahalliy hokimiyat organlarining qo‘shimcha soliqlardan tushumlarni undirishdan manfaatdorligini ortishiga olib keladi.

Fikrimizcha, soliq turlari bo‘yicha normativlarni byudjetlar o‘rtasida belgilash bir xildagi yondashuv asosida, ajratma foizlari bir xil miqdorda respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlarning me’yoridan oshib ketmagan holda amalga oshirilmog‘i kerak. Biroq ajratmalar me’yorlari soliq xususiyatlari va tenglashtirish siyosatidan kelib chiqishi lozim. Shuningdek, keyingi yillar uchun mahalliy byudjetlar daromadlarini hisoblashda uning bazis yildagi (hisobot yili) hisoblangan, undirilgan, ortiqcha to‘langan hamda byudjetga soliq qarzdorliklarining o‘zgarishini (kamayishi/ko‘payishi) hisobga olish lozim. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i, jismoniy shaxslardan yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun

soliq tushumlari joriy yilda hisoblangan soliq summalarini indekslash yo‘li bilan prognozlashtirilishi, soliqsiz tushumlar vazirlik va idoralarning ma’lumotlariga ko‘ra yoki o‘rtacha oylik tushumlardan kelib chiqqan holda prognozlashtirilishi kerak.

Mahalliy byudjetlar xarajatlari O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq biriktirilgan majburiyatlar bo‘yicha xarajatlar (har bir soha yoki tarmoqlarga) alohida yondashuv asosida hamda birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar bo‘yicha bir yil yoki o‘rta muddatlarga hisob-kitob qilinmog‘i kerak. Shuningdek, byudjet shaffofligi bo‘yicha xalqaro reytingda etakchi o‘rinlarni egallab turgan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan kelib chiqqan holda «Ochiq byudjet» portalida byudjet parametrlari va ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, nafaqat respublika, viloyat, tuman va shaharlar byudjetlari kesimida, balki ana shu byudjetlardan moliyalashtiriladigan har bir byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlari hamda daromadlari kesimida ham joylashtirilishi byudjet tizimi ochiqligi va shaffofligini ta’minlashga, mablag‘lardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tuman, shahar hokimlari tomonidan emas, balki mahalliy kengashlar tomonidan qabul qilinishi tegishli mahalliy byudjet daromadlaridan oqilona foydalanish imkonini beradi. «Tashabbusli byudjet» tizimida mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish yuzasidan fuqarolar tomonidan o‘rinli va mazmunli takliflar berilishini, berilayotgan ovozlarning xolisligini ta’minlashda elektron raqamli imzodan foydalanish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu orqali tegishli hududning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o‘z vaqtida bartaraf etishga, mavjud infratuzilmani yaxshilashga, pirovardida, mahalliy byudjetlar mablag‘laridan samarali foydalanishga erishiladi.

Mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirish, ular daromadlari tarkibida o‘z daromadlari manbai va hajmini kengaytirish maqsadida yangi soliq bazalarini shakllanishiga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirish zarur bo‘ladi. Hududlarda har tomonlama rivojlangan moliyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy muhitni yaratish, shu bilan birga, mahalliy hokimiyat va moliya organlari faoliyatini takomillashtirishga oid bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini oshirishda davlat va xususiy sektorning birdek faol bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mahalliy hududning investision jozibadorligini oshirish, bunda mahalliy hokimliklar o‘z vakolati doirasida qulay shart-sharoitlar yaratishi, nafaqat mahalliy byudjet daromadlarini oshishiga, balki xususiy sektor uchun qulay ishbilarmonlik muhitini ta’minlaydi.

Hududdagi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot, markazlashgan investisiyalarni moliyalashtirish, davlat boshqaruvi organlarini hamda o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlarining zarur darajada moliyalashtirilishi uchun mahalliy byudjetlar etarli miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Buning uchun ular moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishlari kerak.

Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta’minlash va oshirish maqsadida mahalliy hokimlik idoralarining byudjetga qo‘shimcha daromad tushirishdagi manfaatdorligini oshirish maqsadida respublika byudjetiga ajratma qilinadigan soliqlar bo‘yicha prognozdan ortiqcha tushgan qismini mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirilishi muhimdir.

Mahalliy byudjetlar barqarorligini oshirishda mahalliy Kengashlar huzurida mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta’minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini kengaytirish uchun hududlar zaxiralari va imkoniyatlarini ishga solish, shuningdek, tuman va

shaharlarda sanoat hamda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi doimiy faoliyat ko‘rsatadigan komissiyalarni shakllantirish lozim. Mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyati uning o‘ziga xos xususiyatlari va muhim belgilari orqali ifodalanadi. Mahalliy byudjetlar, eng avvalo, tegishli viloyat, tuman va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu maqsadda ular mahalliy hokimiyat organlarining o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun daromadlar manbalari va tushumlar miqdoriga ega bo‘lishlarini taqozo etadi. Shuningdek, mahalliy byudjetlar hisobidan mahalliy hokimiyatga bo‘ysunuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyalashtiriladi. Bu esa aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlarini nazarda tutadi. Mahalliy byudjetlarga xos bo‘lgan ushbu xususiyatlar va muhim belgilarning barchasi bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi mahalliy byudjetlarning mazmuni va mohiyatini ifoda etadi. Mahalliy byudjetlar mahalliy boshqaruv idoralari faoliyat ko‘rsatishining asosiy moliyaviy manbasi bo‘lib, tegishli ma’muriy hududning ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirish, hududlarda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini ta’miinlash, ishlab chiqarish, bozor va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, hududda turli davlat dasturlari asosida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish, aholining yordamga muhtoj va kam ta’minlangan qismini moddiy ta’minlash orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi hududlarning soliq va moliyaviy salohiyatidan samarali foydalanish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirish asosida o‘z mablag‘lari hisobidan ushbu byudjetda ko‘zda tutilgan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xarajat majburiyatlarini qoplash imkoniyatini ifoda etadi. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligi etarli miqdorda o‘z daromadlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Chunki, mahalliy xarakterga ega bo‘lgan masalalarning samarali echimi, tabiiy-resurs salohiyatidan samarali foydalanish, ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligini ta’minlash etarli miqdorda moliyaviy resurslarning bo‘lishini taqozo etadi. Bir vaqtning o‘zida mahalliy byudjetlar daromadlarining xarajatlariga mutanosib emasligi ular daromadlari manbalarining tarkibiga va xarajat yo‘nalishlariga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan mahalliy byudjetlar barqarorligining oshirilishi daromad manbalarining kengaytirilishini, tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishini, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanilishini hamda ularning xarajat majburiyatlarining optimallashtirilishini taqozo etadi. Hududdagi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiyot, markazlashgan investisiyalarni moliyalashtirish, davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini hamda hokimiyat organlarini saqlash xarajatlarining zarur darajada moliyalashtirilishi uchun mahalliy byudjetlar etarli miqdordagi moliyaviy resurslarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Buning uchun ular moliyaviy jihatdan barqaror bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. SHERNAEV A.A. TAX ANALYSIS IN MICROLEVEL TAX PLANNING // ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. FEBRUARY, 2021 -IV. ISSN 2181-9750, 75-82-p.

2. SHERNAEV A.A. ON THE ISSUE OF THE EFFICIENCY OF TAXATION OF JOINT STOCK COMPANIES // «ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика». Международный

ежемесячный научный журнал - №9-2 (67). Москва, изд. ООО «Капитал», 2020. – с. 149-152.

3. Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES // International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357

4. Шернаев А.А. Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах // «Интернаука»: научный журнал - № 12(141). Часть 2. Москва, изд. «Интернаука», 2020. - с. 43-45

5. Iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar belgilandi//Xalq so‘zi, 2020 y. 10 iyun, №122.

6. Зюзина Т.Е. Муниципальная реформа и развитие экономической основы местного самоуправления //Современное право. –М., 2015, - №2, - С.45-50.

7. Korotina N.Y. Metodika analiza finansovogo sostoyaniya byudjetov munitsipalnix obrazovaniy//Buxgalterskiy uchet v byudjetnix i nekommercheskix organizatsiyax. – M.,2014. – №17(353). – S.17-28.

8. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo‘llari (qashqadaryo viloyati misolida)// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.

9. Mamanazarov A.B. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini oshirish masalalari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2002. – 22 b.

10. Ro‘ziyev Z.I. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.

11. Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromadlar bazalarining barqarorligini ta’minlash yo‘llari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.

12. Qiyosov SH. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish muammolari//Moliya jurnali. –T.: 2014. -№1. – B. 36-40.

13. Qobulov H.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yo‘nalishlari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.

14. Mansurov M.A. Davlat byudjetini ijro etishda byudjet ma’lumotlarning ochiqligini ta’minlash va markazlashgan byudjetdan voz kechishning ahamiyati//Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali. – T. BMA., 2019 (noyabrdekabr). - №6. –B. 58-67.

15. Suvanov A.T. Mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari: i.f.n. ... avtoreferat. – T.: BMA. 2011. – 22 b.